



2025-yil 29-iyun, 132-son

JARAYON

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz.uz

YANGI AVLOD OVOZI VA SHIJOATI

barcha sohada yangramoqda va ko‘rinmoqda



Boshlanishi 1-betda

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida o‘g‘il-qizlarning puxta ta‘lim-tarbiya olishi uchun sharoit yaratish, ish bilan ta‘minlash, tadbirkorlik, innovatsiya, ijtimoiy faoliyat, ijod va sport sohalaridagi faol ishtirokiga ko‘maklashishga qaratilgan aniq maqsadlar belgilab berildi. Bu yosh avlod nafaqat kelajak bunyodkori, balki bugungi taraqqiyotning faol ishtirokchisi ekanini ham anglatadi.

Dunyoda turli-tuman global muammolar ko‘payib borayotgan bir pallada axborot texnologiyalarini mukammal o‘zlashtirgan, mustaqil fikrlaydigan, jamiyatda o‘z o‘miga ega yoshlar qatlami hal qiluvchi kuchga aylanmoqda. O‘zbekistonlik yigit-qizlar ham bu jarayondan ortda qolayotgani yo‘q. Ular orasida xalqaro olimpiada g‘oliblari, startap loyihalar mualliflari, xalqaro stipendiyalar sohiblarini uchratish odatiy holga aylanib qoldi. Yuqori texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, kreativ industriya singari sohalarda yurtimiz yoshlari yaqqol peshqadamlik qilmoqda.



Sanjarbek RASHIDOV,
O‘zJOKU birinchi prorektori

Janubiy Koreya, Finlyandiya, Singapur singari rivojlangan davlatlar o‘shish strategiyasini aynan yosh avlodga tayangan holda belgilagan. Xususan, Janubiy Koreya intellektual iqtisodiyotni shakllantirishda yoshlarning texnoparklardagi

ishtiroki va startaplarini qo‘llab-quvvatlash orqali dunyoga mashhur brendlarning vujudga kelishiga hissa qo‘shdi. Finlyandiya esa har bir yigit-qiz uchun differensiyalangan shaxsiy rivojlanish dasturlari ishlab chiqilgan. Yoshlar nafaqat ta‘limda, balki siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ham faol ishtirok etadi. Shu yo‘l bilan fin yoshlarida jamiyat uchun mas‘uliyat hissi shakllantiriladi.

Mamlakatimizda “Yoshlar daftari”, “Yoshlar uchun 1 milliard”, “Yoshlar parlamenti” kabi loyihalar, “Yoshlar haftaligi” kabi keng qamrovli tadbirlar orqali ilg‘or xalqaro amaliyot hayotga bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda.

Bugun dunyo yoshlari axborot olamida faol. Turli ijtimoiy tarmoq va platformalar orqali fikr bildirish, ma‘lumot tarqatish, kreativ yondashuvlarni namoyon qilish imkoniyatiga ega. Masalan, AQSH va Kanadadagi saylovoldi kampaniyalariga yoshlar aynan ijtimoiy tarmoqlar orqali katta ta‘sir ko‘rsatgan. O‘zbekistonda ham yoshlar axborot maydonida faol va ta‘sirchan guruhga aylandi. “Yoshlar media markazi”, “Yoshlar ovozi” kabi platformalar, yosh blogerlar faoliyati orqali bu maydonda yangi avlod ovozi yangramoqda.

Zamonaviy siyosiy jarayonlar tahliliga ko‘ra, yoshlar nafaqat demografik resurs, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi, mafkuraviy immuniteti va innovatsion salohiyatini belgilab beruvchi yetakchi qatlamdir. Ilmiy izlanishlar ham buni tasdiqlaydi. Yoshlar jamiyatdagi yangilanish jarayonining faol ishtirokchisi, axloqiy me‘yorlar tashuvchisi, dunyoqarashlarni mujassam etuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Yoshlar jamiyatning intellektual va innovatsion salohiyati hamda ma‘naviy kuchidir. Ilmiy tahlillarga ko‘ra, yosh avlod har qanday jamiyatda yangilanish, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot va fuqarolik faolligining asosiy omili. Bugungi O‘zbekistonda ham yoshlar jamiyatning yetakchi kuchi sifatida davlat islohotlarida bevosita ishtirok etmoqda. Bu nafaqat faxr, balki mas‘uliyat hamdir.

Mustaqil fikrlaydigan, dunyoviy va milliy qadriyatlar uyg‘unligini anglagan, zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallagan avlodni voyaga yetkazish yangi O‘zbekistonning asosiy strategik vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

30-yunning mamlakatimizda Yoshlar kuni etib belgilangani bugungi yosh avlodning faolligini e‘tirof etish, yurtimiz kelajagidagi o‘rmini yuksak baholash, eng muhimi, har tomonlama qo‘llab-quvvatlashda umummilliy ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, yoshlarga e‘tibor mamlakatning ertangi kuniga, millatning intellektual salohiyatiga e‘tibordir. Biz ushbu yuksak mas‘uliyatni his etgan holda, xalqimiz farzandlarining innovatsion qo‘yalari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, tanqidiy fikrlay olish salohiyatini yanada qo‘llab-quvvatlaymiz. Chunki yangi O‘zbekistonni yangicha fikrlaydigan, bilimli va mas‘uliyatli yoshlar barpo etadi.

Dunyodagi murakkab vaziyatga qaramay, mamlakatimizda muhim islohot va o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni o‘z vaqtida sifatli ishga tushirish, aholining barqaror daromad manbalarini yaratish, yangi ish o‘rinlari ochish, bandlikni ta‘minlash, ehtiyojmand fuqarolarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, murojaatlarni joyida hal etish barchamizning zimmamizga katta mas‘uliyat yuklaydi.

HAMMASI – XALQIMIZ ROZILIGI UCHUN!



Ulug‘bek INOYATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasidagi O‘zXDP
fraksiyasi rahbari

“Bandlikni ta‘minlash — juda dolzarb masala. Sababi, ish bilan ta‘minlash kambag‘allik darajasida yashayotgan fuqarolar turmushini tubdan o‘zgartiradigan muhim omildir. Shu bois, bandlik masalasi har yilgi davlat dasturlarida ham, uzoq va yaqin istiqbolni ko‘zlovchi strategiyalarda ham o‘z ifodasini topadi.

ayniqsa, hududlardagi mutasaddilardan tashabbuskorlik va javobgarlik asosida ish yuritishni talab etmoqda.

Keyingi yillarda har bir loyiha hamda vazifa aniq reja va iqtisodiy asoslari bilan mustahkam belgilab berilmoqda. Ammo joylardagi ayrim sustkashliklar sababli muammolar yuzaga kelmolqda. Yig‘ilishda bajarilmagan vazifalarga ham e‘tibor qaratildi. Xususan, birinchi yarim yillikda 2 million 600 ming kishini ish bilan ta‘minlash reja qilingan. Lekin yetarlicha mablag‘ va sharoit yaratilganiga qaramay, bandlik rejası 15 ta tumanda to‘liq bajarilmagan.

Bandlikni ta‘minlash — juda dolzarb masala. Sababi, ish bilan ta‘minlash kambag‘allik darajasida yashayotgan fuqarolar turmushini tubdan o‘zgartiradigan muhim omildir. Shu bois, bandlik masalasi har yilgi davlat dasturlarida ham, uzoq va yaqin istiqbolni ko‘zlovchi strategiyalarda ham o‘z ifodasini topadi.

Ish o‘rni ochilmasligi muayyan muhim ijtimoiy loyihalar vaqtida amalga

oshirilmaganini ham anglatadi. Har bir loyihani bajarish, murojaatlarni joyida hal qilish choralarni ko‘rish bo‘yicha mutasaddilarning mas‘uliyati va javobgarligini kuchaytirishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Bu borada eng ta‘sirchan institut, albatta, jamoatchilik va xalq nazorati institutidir.

Endi “Xalq nazorati” elektron portali mamlakat bo‘ylab ishga tushiriladi. Ushbu platforma aholiga o‘zi yashayotgan hududdagi muammolar haqida to‘g‘ridan to‘g‘ri mas‘ul tashkilotlarga murojaat qilish imkonini beradi. Bunda masalaning aniq surati yoki videosi portalning mobil ilovasiga yuklanadi. Tizim murojaatni mutasaddi tashkilotga yo‘naltiradi. E‘tiborlisi, murojaatning javoblari portalda oshkora e‘lon qilinadi. Masalaning qanday yechim topgani yoki nega hal etilmayotganini keng jamoatchilik kuzatib borishiga imkon yaratadi.

Portalning ochiqlik prinsipiga asosan ishlashi mas‘ullarning fuqarolar murojaatiga qanday munosabatda

bo‘layotganini ham ko‘rsatib turadi. Biz mutasaddilarning xalqimiz oldidagi mas‘uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladigan, aholiga har tomonlama manfaatli bunday loyiha va zamonaviy platformalarni qo‘llab-quvvatlaymiz. Shu bilan birga, ularning ijtimoiy samaradorligi uchun har bir hududda deputatlik hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga harakat qilamiz. Chunki murojaatlar egasiga yetib borishi va tez hal bo‘lishidan, avvala, saylovchilarimiz manfaatdor.

Shuningdek, yig‘ilishda davlatimiz rahbari Xalq qabulxonalari tizimiga ham to‘xtalib, ular aholi dardini eshitib, masalalarni hal qilish o‘rniga murojaatlarni boshqa tashkilotlarga taqsimlash bilan mashg‘ul bo‘lib qolganiga e‘tibor qaratdi. Bunga misol tariqasida o‘tgan yili Virtual qabulxona va Xalq qabulxonalariga yuborilgan murojaatlarning 55 foizi ijobiy hal etilmagani ko‘rsatib o‘tiladi.

Shu o‘rinda Xalq qabulxonalari faoliyati samaradorligini oshirish uchun ularga viloyat va tuman hokimining o‘zi rahbarlik qilishi belgilandi. Bundan ko‘zlangan maqsad bugun paydo bo‘lgan muammoni keyingi kunga qoldirmay, murojaatni boshqa idoraga o‘tkazmay, shu yerning o‘zida hal qilishdir.

Mamlakatimizdagi 1024 ta mahalla “og‘ir” toifada ekani, yana 1294 tasida jinoyatchilik, 1500 tasida ajralishlar ko‘paygani aytib o‘tiladi. Xalqimizda “Bir bolaga yetti mahalla — ota-ona” degan gap bor. Bu bejiz aytilmagan. Mahallaning obod va farovon bo‘lishi islohotlarning aholi turmushiga ta‘sirini ko‘rsatuvchi ko‘zgu aslida. Shu bois, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi mahalla raislari va “yetitilik”ni yangicha ishlashga o‘rgatishi zarurligi qayd etildi.

Bugungi globallashtirgan dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning dolzarbligi oshib bormoqda. Buni xalqimizning kundalik turmush bilan bog‘liq masalalarga talabchanligi ortganida ham ko‘rish mumkin. Demak, hech bir muammo va murojaatni e‘tiborsiz qoldirmaslik mutasaddilarning burchiga aylanishi zarur. Ko‘zlangan euzu maqsadlarga erishish uchun hududlardagi deputatlarimiz ham tashabbuskorlik va talabchanlik ko‘rsatishi zarur.



O‘ZBEKISTON — TURIZMNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA ENG FAOL MAMLAQAT



Obod manzillar

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida jamiyat hayotining barcha yo‘nalishi qatorida turizm sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha qator vazifalar belgilangan. Bu bejiz emas. Zeram, jahonda kechayotgan globallashtirish va iqtisodiy inqiroz jarayoniga qaramay, sayyohlik sanoati faol rivojlanayotgan tarmoqlardan biriga aylanib bormoqda.

Keyingi yillarda yurtimizda turizm industriyasi va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, sohaning me‘yoriy-huquqiy asoslari takomillashtirildi. Tadbirkorlarga soliq imtiyozlari va preferensiyalar taqdim etildi. Milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorda samarali targ‘ib qilish uchun sharoit yaratildi, viza rejimi liberalashtirildi, qulay sayyohlik muhiti shakllantirildi. Natijada ichki va tashqi turizm jadal rivojlanaypti. Misol uchun, 2024-yilda 10,1 million xorijlik sayohat qilish va boshqa maqsadda yurtimizda bo‘ldi. Ko‘rsatilgan turizm xizmatlari eksporti 3,4 milliard dollarni tashkil etdi.

Mamlakatimizda xalqaro turizm industriyasini oqilona tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish hamda bu borada jahon tajribasini qo‘llash, izchil islohotlar sayyohlar oqimini ko‘paytirish barobarida O‘zbekistonning xalqaro maydondagi jozibadorligini oshirishda ham samara berayotir. Misol uchun, Jahon iqtisodiy forumi tomonidan e‘lon qilingan

“Sayohat va turizmni rivojlantirish indeksi” tadqiqotiga ko‘ra, O‘zbekiston 2024-yilda “Turizmni rivojlantirish bo‘yicha dunyoning eng faol mamlakati” deb topildi. Bu e‘tirof yurtimizda xalqaro sayyohlarni jalb qilish va barqaror turizmni rivojlantirishga e‘tibor kuchayib borayotganini anglatadi.

Bu yo‘nalishdagi ishlar joriy yilda ham izchil davom etyapti. Xususan, turizm infratuzilmasini yaxshilash, sohadaagi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ichki turizm targ‘ibotini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining shu yil 24-iyundagi “Turizm obyektlari hamda joylashtirish vositalarida atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirilgan mahsulotlardan foydalanish va ekologik talablarga muvofiq ko‘rsatiladigan xizmatlarni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi ishlar rivojida muhim qadam bo‘ldi.

Bugun barcha soha va tarmoqlarda tabiatga bezarar, ekologik sof texnologiyalardan foydalanishga e‘tibor kuchaydi. Shuningdek,



suv va tuproqni ifloslantirmaslik, chiqindilarni qayta ishlash, ishlab chiqarish jarayonida energiyatejamkor texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Bunday yangicha uslub va vositalar, ilm-fan yutuqlari hamda innovatsiyalarning sayyohlik xizmati ko‘rsatadigan tuzilmalar faoliyatiga tatbiq etilishi ayni muddao. Ana shu maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarish maqsadida 2025-yildan boshlab har yili noyabr oyida “Eng namunalı yashil turizm obyekti” tanlovi o‘tkaziladi. Bundan maqsad turizm obyektlari, jumladan, joylashtirish vositalarida

atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirilgan mahsulotlardan foydalanish, shuningdek, sohada ekologik talablar asosida ko‘rsatiladigan xizmatlarni rag‘batlantirishdir.

Tanlovda turizm obyektlarida bir martalik plastik mahsulotlardan foydalanishda ekologik jihatdan zararsiz mahsulotlarga o‘tish borasida yaxshi natijalarga erishgan, sohaga oid ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etib, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalangan holda chiqindilarni kamaytirishda alohida tashabbus ko‘rsatgan tadbirkorlar ishtirok etishi ko‘zda tutilgan.

tashkil etilyapti. Ushbu turizm maskanlarida yashil hududlar barpo etish, suv va energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etishga alohida e‘tibor qaratilyapti. “Yashil” turizm maskanlari kengayib borayotgani esa sayyohlar oqimi ko‘payishiga zamin yaratmoqda. Xususan, o‘tgan yili viloyatimizga 1 million 700 ming xorijlik mehmonlar, to‘rt milliondan ziyod mahalliy sayyoh keldi. Joriy yilda bu raqam yanada ko‘paymoqda. Sayyohlik infratuzilmasi va xizmat ko‘rsatishi rivojlanirish bo‘yicha qilinayotgan ishlar turizm rivoji hamda iqtisodiy farovonlik sari yangi istiqbol ochadi.

Tanlov hududiy saralash va respublika bosqichidan iborat. 1-o‘rin egalari BHMning 150 barobari miqdoridagi pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi. Ushbu tadbir ekologik barqarorlikka yo‘naltirilgan loyihalarni kengaytirish, turizm obyektlarida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan innovatsion yechimlar hamda istiqbolli tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



O'zbekiston eksport salohiyati:

SHAKLLANGAN STEREOTIPLAR O'ZGARMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Chunki biz uzoq yillar davomida, asosan, xomashyo yetkazib beruvchi davlat sifatida ko'rib keldik. "O'zbekistondan kelgan mahsulot" deyilganda ko'p holatda paxta, oltin yoki tabiiy gaz tasavvurga kelardi. Ammo bu qarash o'zgarmoqda. Endi O'zbekiston nomi faqat resurslar bilan emas, balki qayta ishlangan, iste'molga tayyor, raqobatbardosh mahsulotlari bilan bog'lanmoqda.

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) ekspertlari tomonidan 2017-2024-yillar davomida mamlakatning eksport tarkibi tahlil qilindi. Ushbu tahlil BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD) tomonidan tavsiya etilgan xalqaro metodologiya asosida bajarildi. UNCTAD metodologiyasiga ko'ra, eksport mahsulotlari texnologik murakkabligi va qayta ishlanish darajasiga qarab 6 toifaga ajratiladi. Bularga past, o'rta, yuqori texnologiyali, qayta ishlangan resursga asoslangan mahsulotlar hamda xomashyo, tasniflanmagan mahsulotlar kiradi.

Sifat o'zgarishiga qarab qat'iy qadam

Keyingi yillarda yurtimiz iqtisodiyotida rivojlanishning yangi bosqichi — qayta ishlangan, yuqori qiymatli mahsulotlar ulushi ortib bormoqda. 2017-2024-yillar davomida mamlakatning tashqi savdo tarkibida xomashyo ulushi deyarli ikki barobar — 36,3 foizdan 17,3 foizgacha kamaydi. Bu sifat jihatidan yangi bosqichga o'tilayotgan iqtisodiy jarayonlarning yaqqol tasdiq'idir.

2024-yilgi eksportdagi xomashyo tarkibiga nazar tashlansa, yetakchi o'rinni mis (30,96 foiz) egallab turibdi. Undan keyingi o'rinlarda sabzavotlar (18,6 foiz), meva va yong'oqlar (15,8 foiz), tabiiy gaz (13,16 foiz) hamda kumush, platina va boshqa qimmatbaho metallar (5,7 foiz) qayd etilgan.

Bu raqamlar global qiymat zanjirida yuqoriroq pog'onalarga ko'tarilayotganidan, iqtisodiy tarkibning xomashyo eksportiga emas, tayyor mahsulot va qayta ishlangan mahsulotlarga asoslanayotganidan darak beradi. Bu, o'z navbatida, mamlakatning tashqi iqtisodiy imiji va raqobatbardoshligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy.

Sharh

Kundalik xarajatdan orttirib, bir oz mablag' jamg'arsak, uni qanday saqlash to'g'risida bosh qotira boshlaymiz. Eski sandiqqa solib, og'ziga kattakon qulf osamiz yoki bo'lmasa o'rab-chirmab ko'zdan panaga yashiramiz, ammo u yerdan ham ko'nglimiz to'lmaydi. Shunda do'stu birodarlar, qarindosh-urug'lar bilan maslahatlashib, chorva, avtomobil yoki uy, do'kon sotib olishga qaror qilamiz. "Yetti o'lchab bir kes", deganlaridek, uzoq bosh qotiramiz. Turli hisob-kitob va taxminlarga ko'ra, o'zimizga eng maqbul yo'lni tanlaymiz. Tasavvur qiling, bir kishi ozgina mablag'ni saqlash va ko'paytirish uchun shuncha bosh qotirar ekan, yirik sarmoyadorlar davlatlar va sohalarga mablag' kiritishda qanchalik kuchli iqtisodiy tahlillar o'tkazadi.

Ayniqsa, siyosiy kelishmovchiliklar, iqtisodiy buhronlar avj olayotgan bir davrda bu masalada yirik kompaniya egalari yanada kuchli bosh qotirishiga, ta'bir joiz bo'lsa, "yetmish o'lchab bir kesish"iga to'g'ri kelyapti. Ular biror davlatdagi loyihaga sarmoya kiritishda ko'plab omil — davlatning iqtisodiy o'sishi barqarorligi, qonunchilik, yuritayotgan siyosati, hatto boshqa davlatlar bilan munosabatlariga ham katta e'tibor qaratmoqda. Bu esa, o'z navbatida, davlatlar uchun xorijiy investitsiya jalb qilishni murakkab iqtisodiy jarayonga aylantirib qo'yayotir.

Shu bois, dunyo bo'yicha sarmoyalar oqimi yildan yilga pasayib bormoqda. BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD)ning shu oyda e'lon qilingan Jahon investitsiya hisobotiga ko'ra, dunyo miqyosida global to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar 2024-yilda 11 foiz kamayib, 1,5 trillion dollarni tashkil etgan. Bu ketma-ket ikkinchi bor pasayishidir. Tashkilot mutaxassislari xulosasiga ko'ra,

Tabiiy resurslardan yaratilgan mahsulotlar ulushi ikki barobar oshdi

So'nggi yetti yil ichida yurtimizda tabiiy resurslarga asoslangan mahsulotlarni qayta ishlash va eksportga tayyor holda chiqarish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. 2017-yilda ushbu toifadagi mahsulotlar umumiy eksport tarkibining 3,9 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, 8,4 foizga yetdi. Bu esa ikki barobar o'sishni anglatadi.

Eksport tarkibida yetakchi o'rinni neft yoki bitumli mineralardan qayta ishlangan mahsulotlar (31 foiz) egalladi. Keyingi o'rinlarda bug'doy va meslin uni (19,2 foiz), qayta ishlangan tamaki mahsulotlari (4,3 foiz), qurilish materiallari (3,7 foiz) hamda qoldiq neft mahsulotlari (3,5 foiz) qayd etilmoqda. Bu tendensiya O'zbekiston iqtisodiyotining xomashyo yetkazib beruvchi emas, qayta ishlovchi, ya'ni qo'shimcha qiymat yaratuvchi iqtisodiyot sari harakatlanayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ichki sanoat tarmoqlari va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilayotgan islohotlarning amaliy samarasi sifatida ham baholanadi.

Past texnologiyali mahsulotlar eksporti oshmoqda

Eksport nafaqat xorijiy valyuta tushumining asosiy manbai, balki ishlab chiqarish salohiyati kengayishi, texnologik yangilanish, yangi ish o'rinlari yaratilishi va innovatsion rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchidir. Ayniqsa, zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida eksport tarkibi va sifati milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini belgilab



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



beruvchi asosiy omillardan biriga aylangan. Rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatadiki, eksport qilinaotgan mahsulotlar tarkibining texnologiyaviy darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, iqtisodiyot shunchalik barqaror va innovatsion bo'ladi.

Ammo past texnologiyali mahsulotlarning eksportdagi ulushi 14,2 foizdan 17,1 foizgacha o'sgan va tarkibi ham sezilarli darajada murakkablashgan. Bu toifadagi mahsulotlar eksporti tarkibida asosiy ulushni to'qimachilik ipi (37,1 foiz) egallab turibdi. Shuningdek, to'qimachilik mahsulotlaridan tayyor kiyim-kechaklar (13,1 foiz), trikotaj va to'qilgan matolar (8,1 foiz), tayyor to'qimachilik

buyumlari (6,3 foiz) hamda paxta matolari (4,4 foiz) kabi mahsulotlar ham yetakchi o'rinlarni egallamoqda.

Global sanoat zanjiri

O'zbekistonning eksport salohiyatida o'rta texnologiyali mahsulotlar alohida o'rin tutadi. So'nggi yetti yil davomida bu toifadagi mahsulotlarning eksportdagi ulushi barqaror ravishda 8 foiz atrofida saqlanib turibdi. Bu ko'rsatkich miqdor jihatidan o'zgarasdek tuyulsa-da, tarkibiy jihatdan mahsulotlar murakkablashib, sanoatning texnologik o'sishini ko'rsatadi.

2024-yilda o'rta texnologiyali mahsulotlar tarkibida yetakchi ulushni o'g'it (19,1 foiz) egalladi. Shuningdek, avtomobil qismlari va ehtiyot qismlar (18,6 foiz), polietilen (12,3 foiz), ichki yonuv dvigatellari (8,8 foiz) hamda maishiy texnika (6,7 foiz) kabi mahsulotlar ushbu segmentdagi eksportning yuksalishiga hissa qo'shmoqda.

Bu holat mamlakatda sanoat kooperatsiyasi, mashinasozlik va kimyo sanoati rivojini yanada chuqurlashtirish bo'yicha qilinayotgan islohotlar samarasini namoyon etadi. Shu bilan birga, eksport tarkibida yuqori qiymatli va qayta ishlangan mahsulotlarning bosqichma-bosqich o'sishi O'zbekistonning global sanoat zanjirida barqaror o'rin egallashini ta'minlovchi muhim omillardan biri.

Ishonchning o'sishi

O'zbekiston tashqi savdosida yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi yil sayin izchil va barqaror o'sib bormoqda. Agar 2017-yilda bu toifa mahsulotlar umumiy eksportning atigi 0,5 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 1,5 foizga yetdi. Bu esa uch barobar o'sish demakdir.

Eksport tarkibida asosiy ulushni televizorlar va televizion qurilmalar (14,6 foiz), aylanuvchi

elektr uskunalar (14,2 foiz), elektr jihozlari va apparaturalari (10,8 foiz) hamda elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi mashinalar va ularning qismlari (9,7 foiz) egalladi.

Bu o'sish — mamlakatda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish infratuzilmasi shakllanib borayotgani va texnologik yechimlarga ehtiyoj ortayotganining dalili. Shuningdek, sohaga xususiy sektor jalb etilishi, xorijiy investitsiya uchun qulay muhit yaratilishi ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Yuqori texnologiyali eksport nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki O'zbekistonning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va ilmiy tadqiqot salohiyatini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu tendensiya uzoq muddatli milliy taraqqiyot strategiyasining innovatsion yo'nalishlariga to'la mos keladi.

O'zbekiston eksporti tarkibidagi sifati buriilish shunchaki iqtisodiy trend emas, milliy taraqqiyotning falsafasiga aylanayotgan jarayondir. Tayyor, murakkab mahsulot eksport qilish uchun faqat zavodlar emas, balki yangi tafakkur, tizimli islohotlar, ilm-fanga suyanan boshqaruv va istiqbolni ko'ra oladigan siyosiy iroda kerak.

Texnologik eksport — iqtisodiyotning yuksak bosqichi. Unda qiymat mehnatdan ham oldin bilim, innovatsiya va strategiyada yaratiladi. O'zbekiston shu yo'lga kirgan. Bu yo'l og'ir, ammo sharaflidir. Bu yo'lda yutuqlar ham, sinovlar ham bo'ladi. Lekin eng muhimi — niyat ravshan: xomashyo sotib emas, qiymat yaratib, global bozorda o'z o'rnini topish.

Endi eksport faqat tashqi daromad manbai emas, u milliy iqtisodiyot ko'zgusi, millatning sanoatlashish salohiyati va jahon bilan tengmang-muloqot qila olish qobiliyatini ko'rsatuvchi muhim mezonaga aylanmoqda. Shuning uchun eksportni texnologiya, bilim va madaniyat orqali shakllantirish iqtisodiy taraqqiyotning eng mustahkam yo'lidir.

Mazkur o'zgarish tasodifiy emas. Yillar davomida yuritilgan sanoat siyosati, eksport strategiyasi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mehnati va davlatning qo'llovi natijasidir. Eng muhimi, bu o'zgarish dunyoqarashdagi burilishdir. Chunki eksport qilingan har bir tayyor mahsulot ortida innovatsiya, mehnat, sifat va milliy iftixor bor. Ushbu mahsulotlarning jahon bozorida o'rin egallashi o'zbek brendiga ishonch o'sishi demakdir.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Investitsiya o'zlashtirishga buning ta'siri bormi?

2025-yil avvalida bu yilgi ko'rsatkich bir oz ko'tarilishi kerak edi. Ammo oxirgi vaqtlardagi o'zgarishlar sabab 2025-yilda ham natijalar salbiy bo'lishi qayd etilmoqda.

Shunday davrda O'zbekistonning oqilona investitsiya siyosati hamda yangi tashabbus, jozibador takliflari orqali yil sayin investitsiyalar hajmi ortib, istiqbolli loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Oxirgi sakkiz yilda mamlakatimizda kiritilgan xorijiy investitsiya hajmi qariyb 10 barobar oshdi. 150 milliard dollarlilik 97 mingga yaqin yirik strategik, tarmoq va hududiy loyiha amalga oshirildi. O'tgan yili xorijiy investitsiya 1,6 barobar ko'payib, qariyb 35 milliard dollarni tashkil qildi. Qiymati 10 milliard dollarlilik 242 ta yirik va o'rta loyiha ishga tushirildi.

Xo'sh, bu natijalarga qanday erishilmoqda? "Ko'p iqtisodiyotning ortda qolib ketishi sababi potentsialning yetishmasligi emas, balki tizim hali ham kapitalni kerakli tarmoqqa emas, balki eng oson sohaga yo'naltirayotganidir", deya qayd etdi BMTning Savdo va taraqqiyot bo'yicha bosh kotibi Rebeka Grinspan.

Kapital va sarmoyalarni jamiyat taraqqiyoti uchun eng muhim tarmoqlarga yo'naltirayotgani O'zbekistonning birlamchi yutug'idir. O'tgan yillarda eng ko'p sarmoya kiritilgan loyihalarga nazar tashlasak, ular dunyoda rivojlanib borayotgan tarmoqlar: "yashil" energetika, raqamli iqtisodiyot, sohalarga sun'iy intellekti tatbiq etish kabi yo'nalishlar ekaniga guvoh bo'lamiz.

Jumladan, "DataVolt" samoyasi bilan O'zbekistonda mintaqadagi eng yirik "yashil" ma'lumotlar markazi qurilmoqda. "VEON" sun'iy intellekt asosidagi mobil ilova ishlab chiqarmoqda. "Masdar", "ACWA Power", "Linde", "Shanghai Renewable Energy", "Total



Energies" kabi katta kompaniyalar esa "yashil" energetika bo'yicha loyihalarga 8 milliard dollardan ortiq sarmoya kiritdi.

2025-yil O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishda muhim va samarali yil bo'lishi, 42 milliard dollarlilik sarmoya jalb qilinishi kutilmoqda. Albatta, bunda mamlakatimizda tashkil etilayotgan yirik xalqaro sammit va forumlar ham muhim ahamiyat kasb etyapti. Jumladan, shu yil aprelda bo'lib o'tgan uchta yirik tadbir hamda joriy yil iyunidagi to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi va uning doirasida o'tkazilgan Xorijiy investorlar kengashi majlisi sarmoyadorlar bilan manfaatli shartnoma va kelishuvlarga erishishga xizmat qildi.

Turli mamlakatlarning yirik investorlarini jamlagan forum doirasida rekord darajadagi mablag' — 30,5 milliard dollarlilik kelishuvlarga erishildi. Taqqoslash uchun aytamiz: oldingi uchta forumdagi ko'rsatkich jami 44 milliard dollar edi.

Jumladan, forumda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan 250 million dollarlilik suveren kredit ajratilishi nazarda tutilgan bitim tuzildi. Unga ko'ra, 110 ta sug'orish nasos stansiyasi modernizatsiya qilinadi. Shuningdek, Toshkent viloyatida quvvati 1400 megavattli IES qurish, Farg'ona viloyati Beshariq tumanida quvvati 500 megavattli, Namangan viloyati Pop tumanida quvvati 200 megavattli quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish hamda elektr energiyasini sotib olish bo'yicha bitimlar imzolandi. Xorijiy investorlar ishtirokida yirik hajmdagi, kecha-yu kunduz elektr ishlab chiqarishga mo'ljallangan konsentrlangan quyosh energiyasi stansiyasi quriladigan bo'ldi.

Faqat energetika sohasida emas, ijtimoiy hayot, ta'lim va ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat sohalarida ham yangi loyiha va tashabbuslarni investorlar bilan birgalikda hayotga tatbiq etishga kelishib olindi. Misol uchun, Yangi Namangan shaharchasi

hududida zamonaviy ko'p qavatli uy-joylar va mehmonxona qurish, transport, axborot texnologiyalari, ta'lim tizimi yo'nalishida qator kelishuvlarga erishildi.

Bu yilgi forum investitsion salohiyatimizni namoyish qiluvchi ko'rgazma tashkil etilgani bilan ham avvalgilardan ajralib turdi. Unda mamlakatimizning neft-kimyo, tog'-kon, metallurgiya, mashinasozlik, energetika, elektrotexnika, tekstil, farmatsevtika, axborot texnologiyalari, oziq-ovqat sanoati kabi ko'plab sohada erishgan yutuqlari, viloyatlarning o'ziga xos salohiyati hamda joylarda hayotga tatbiq etilgan yangicha loyiha va tashabbuslarga taqdim qilindi. Ko'rgazma mahalliy tadbirkorlar bilan xorijiy investorlar uchun katta muloqot maydoniga aylandi. Forumda qatnashgan sarmoyadorlar endi O'zbekistonga qaysi hududda qanday loyihani hamkorlikda amalga oshirish mumkinligi bo'yicha takliflar bilan keladi. Ya'ni aniq hisob-kitob va maqsadli sarmoya kiritish borasida ular ko'rgazmadan to'liq ma'lumot oldi. Albatta, bu kelgusida investitsiyalar hajmi karrasiga ortishiga xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, forum kutilganidan ham samarali o'tgandi.

Aslida, forumdagi shartnoma va kelishuvlar hamda boshqa yutuqlar bir-ikki kunlik sa'y-harakatlar natijasi emas, balki uzoq yillik ortga qaytmas islohotlar: o'sib borayotgan barqaror iqtisodiyot, yaratilgan qulay investitsion muhit, davlatimiz rahbarining dolzarb tashabbuslari hamda do'stona va manfaatli muloqotlarga ochiq siyosati mahsulidir.

Tahillarga ko'ra, 2017-yildan beri O'zbekiston iqtisodiy o'sishi barqaror — 5 foizdan ko'proqni tashkil etmoqda. Birgina 2020-yilgi koronavirus pandemiyasi davrida ham mamlakatimiz iqtisodiy o'sishga erishgan kam sonli davlatlar orasida bo'lgan. O'zbekistonda YIM 2019-yili 67 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yili 115 milliard dollarga ko'tarildi. Turli xalqaro iqtisodiy tadqiqotlar

markazlari va ekspertlar hisob-kitobiga ko'ra, 2025-2028-yillarda bu ko'rsatkich yiliga 5,6 foiz yuqorilaydi. 2028-yilga borib, YIM o'rta 173 milliard dollarga yetadi.

Taqqoslash uchun: Jahon banking global iqtisodiy istiqbollar hisobotiga ko'ra, dunyoda yil boshidagi taqribiy iqtisodiy o'sish 2,7 foizdan ayni paytda 2,3 foizga pasaygan. Bu ko'rsatkich 2008-yilgi global iqtisodiy inqiroz davridan beri eng past darajadir.

2026-2027-yillarda o'sish sur'ati 2,4 va 2,6 foiz bo'lishi prognoz qilinmoqda. AQSH iqtisodiyotining o'sish prognozi 2025-yil uchun 2,3 foizdan 1,4 foizga va 2026-yil uchun 2 foizdan 1,6 foizga qayta ko'rib chiqildi. Yevropa hududida 2025-yil uchun o'sish prognozi 1 foizdan 0,7 foizga, 2026-yil uchun esa 0,7 foizga tushirildi. Xitoy iqtisodiyoti 2025-yilda 4,5 foiz o'sishi prognoz qilinmoqda.

Raqamlardan ham ma'lum, iqtisodiy o'sish borasida O'zbekiston ancha barqaror davlatga aylalib bormoqda. Yana bir muhim jihat: Jahon banki bosh iqtisodchisi Indermit Gill Osiyo mintaqasida boshqa joyda rivojlanish to'xtab qolayotganini aytdi.

Hisobotda ushbu masalaga oqilona yechim — strategik savdo-investitsiya hamkorligini yo'lga qo'yish va savdoni diversifikatsiya qilish, jumladan, mintaqaviy bitimlar tuzish orqali kengroq liberalashtirishga intilish va iqtisodiy o'sishga yordam beradigan islohotlarni amalga oshirish ekanini qayd etilgan. Tahlil qilib ko'rsangiz, oxirgi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'zgarish va yangilanishlar xuddi shu qoida asosida olib borilayotganini anglaysiz.

Xorijlik investorlar "O'zbekiston — 2030" strategiyasi asosida hayotga tatbiq etilayotgan loyihalarni ham qiziqish bilan qatnashmoqda. Ayniqsa, muqobil energiya ishlab chiqarishni kengaytirish, "yashil" texnologiyalarni ko'paytirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga doir salmoqli va tizimli ishlar xalqaro tashkilotlar, yetakchi ekspertlar va sarmoyadorlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Yaqinda "S&P Global Ratings", "Moody's" xalqaro agentliklari O'zbekistonning suveren kredit reytingi prognozini "barqaror"dan "ijobiy" darajaga o'zgartirgani ham bejiz emas. Ushbu e'tirof mamlakatimizning jahon sarmoya bozorida imijini yanada yaxshilaydi.

Sarmoyadorlar bilan manfaatli kelishuvlar asosida mamlakatimizda qilinayotgan bunyodkorlik ishlari iqtisodiyotimizni yuksalishi, aholining farovonligi ortishiga xizmat qiladi.

Sanjar ESHMURODOV,
"Yangi O'zbekiston" sharhlovchisi



HUQUQSHUNOSLAR FAOLIYATIDA

RAQAMLASHTIRISH TEKNOLOGIYALARIDAN

QANDAY FOYDALANMOQDA?



Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Kechqurun uyga kelsam, singlimning “og‘zi qulog‘ida”, hovliqib suyunchi so‘radi: “Aka, suyunchi bering, universitetga hujjat topshirdim”. Avvaliga xursand bo‘ldim, axir o‘qiyman, oliy ma‘lumotli mutaxassis bo‘laman deb 2-3 yildan beri tinimsiz tayyorgarlik ko‘radi. Keyin qizim yodimga tushdi, bir oz shamollab, bog‘chasiga bora olmayotgani uchun singlimni Samarqanddan “bog‘cha opa”likka chaqirtirgan edik-da.

Shu zahoti yuzimdagi mamnunlik o‘rmini so‘roq ifodasi egalladi. U buni darrov ilg‘adi. “Shu issiqda bola bilan”, deb boshlagan e‘tirozim og‘zimda qoldi. Smartfoniga ishora qilib, shu yerda, mana shu orqali topshirganini tushuntirdi. Ochig‘i, bir oz xijolat ham bo‘lib qoldim. Telefon orqali o‘qishga hujjat topshirish kerak-keraksiz “spravka”lar yiqqan, byurokratiya cho‘qqisini ko‘rgan biz tengi avlod vakillarining qayerdan ham xayoliga kelsin...

Ertasi kun ishonada navbatdagi maqola uchun mavzuga doir fakt va ma‘lumotlarni tahlil qilar ekanman, kechagi voqea kun davomida xayolimdan ketmadi. Chunki u yozilajak maqola mavzusiga qaysidir jihatdan bog‘liq edi — raqamlashtirish, sun‘iy intellekt imkoniyatlari.

Darhaqiqat, axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan bugungi davrda barcha soha va tarmoqlar jadal raqamlashtirilyapti, AI (artificial intelligence), ya‘ni sun‘iy intellektidan foydalanish qamrovi tobora kengayib bormoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida axborot texnologiyalari sohasida 300 ming yoshni ish bilan ta‘minlash, maktab o‘quvchilarini xalqaro texnologiyalar bozorida talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasblarga o‘rgatish, “Bir million dasturchi” loyihasini kengaytirish va har yili eng iqtidorli 15 ming yoshni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash kabi vazifalar belgilangani esa jamiyatimizning sun‘iy intellekt bilan bog‘liqligi yildan yilga mustahkamlanib borishidan dalolat.

Shu o‘rinda yana bir jihatni aytish joiz. Ko‘pchilik, ayniqsa, katta yoshli avlod vakillari raqamlashtirish, sun‘iy idrokning qulayligi bilan birga qator zararli jihatlari borligini ham ta‘kidlaydi. Demak, bir tomondan qaraganda, raqamlashtirish, sun‘iy idrok imkoniyatlaridan foydalanish — davr talabi, ikkinchi tomondan esa uning xavfli jihatlari bor. Xo‘sh, unda nima qilmoq kerak? Quyida huquqshunoslik sohasida ulardan foydalanish mavzusi orqali ushbu savolga javob qidiramiz.

Huquq sohasida sun‘iy intellektning o‘rni

Sun‘iy intellekt turli amallarni bajarishga mo‘ljallangan algoritm va dasturiy tizimlardan iborat, inson ongi bajarishi mumkin bo‘lgan bir qancha vazifalarni axborot bazasiga kiritilgan ma‘lumotlar asosida amalga oshiradi. Murakkab tahlillar va katta ma‘lumotlar bilan ishlovchi dasturlarni o‘z ichiga olib, mantiqli izchil mulohaza qilish hamda tavsiya berish qobiliyatiga ega “aqli” texnologiya. Shuning uchun mutaxassislar sun‘iy intellektga to‘rtinchi sanoat inqilobining asosi sifatida qaramoqda.

Uni yaratuvchilardan biri hisoblangan amerikalik olim Jon Makkarti 2004-yilda nashr etilgan maqolasida quyidagi ta‘rifni ilgari surgan edi: “Sun‘iy intellekt fan va muhandislikdir. Aqli mashinalar, ayniqsa, aqli kompyuter dasturlarini yaratishdir. Bu inson aqlini tushunish uchun kompyuterlardan foydalanishga o‘xshash vazifa bilan bog‘liq, ammo sun‘iy intellekt biologik kuzatilishi mumkin bo‘lgan usullar bilan cheklanib qolishi kerak emas”.

Bu huquqiy muammolarni tahlil va tadqiq qilish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga

oladi. Boshqa sohalar qatori sun‘iy intellektidan foydalanish huquq sohasini ham chetlab o‘tmadi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar huquq amaliyotida sud protsesslarida, advokatlar va notariuslar faoliyatida sun‘iy intellektidan samarali foydalanmoqda.

Shunga qaramay, dunyo hamjamiyatida sun‘iy intellektidan foydalanish borasida turli qarashlar mavjud. Ba‘zi tadqiqotchi va foydalanuvchilar sun‘iy intellektidan yuridik sohada foydalanish ijobiy natijaga erishishga yordam beradi degan fikrda bo‘lsa-da, bunga qo‘shilmaydiganlar ham talaygina.

Misol uchun, Buyuk Britaniyaning 25 va undan yuqori yoshdagi mingdan ziyod huquqshunosiga “Sun‘iy intellektidan foydalanangmisiz?”, deb murojaat qilganda, 47 foizi “ha”, 28 foizi “yo‘q”, 25 foizi esa “Aytmaslikni afzal ko‘rman” qabilida fikrni bildirgan. Ikkinchi so‘rovnomada esa ularga boshqacharoq, ya‘ni “Sun‘iy intellekt tomonidan erishilgan huquqiy natija va faktlarni tekshirasizmi?” degan savol bilan yuzlanishgan. Yuristlarning 60 foizi “ha”, 20 foizi “yo‘q” va qolgan 20 foizi “Aytmaslikni afzal ko‘rman”, deb javob bergan. Nihoyat, eng asosiyi, sun‘iy intellekt yordamida bajarilgan ishning sifati va avvalgi usullarda huquqiy izlanish olib borish va qarorlar qabul qilish o‘rtasidagi farq so‘ralganda, 47 foiz huquqshunos sun‘iy intellektning samaradorligini ta‘kidlagan bo‘lsa, 13 foizi “avvalgi usul”ni yoqlab ovoz bergan. 28 foiz huquqshunos esa “natija bir xil” degan javobni belgilagan.

Advokaturada qanday natija beradi?

Advokatura sohasida raqamli texnologiyalarni o‘rnatish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda xalqaro advokatura vakillari bilan o‘zaro tajriba almashish, qolaversa, soha vakillarining o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish hamda zamonaviy advokatura institutini yaratish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.



Keyingi yillarda huquq sohasi, xususan, advokatura institutini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash, advokatlar tomonidan sud protsesslarida sun‘iy intellektidan foydalanish amaliyoti oshib, bu hodajati ishlar xususiy sektor vakillari hamda hukumat darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Jumladan, sud protsesslarida sun‘iy intellektidan keng foydalanish, yashil transformatsiyada yuristlarning roli, raqamli texnologiyada geografik va huquqiy to‘siqlarni yengish, “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida yangi huquqiy xizmat ekotizimi yaratilmoqda.

Toshkent davlat yuridik universiteti o‘qituvchisi Mashhuraxon Shokirovaning aytishicha, bugungi kunda yurisprudensiyada sun‘iy intellektning tavsiya va qarorlarini qabul qilish texnologiyasi keng qo‘llanilmoqda. Masalan, dunyoda ilk bor sud majlisida Joshua Brauder tomonidan yaratilgan DoNotPay sun‘iy intellekti sud majlisida ayblanuvchining huquqlarini himoya qilishda ishtirok etdi. Ushbu ilk robot advokat ayblanuvchining mobil telefoni orqali ishlaydi, ya‘ni ayblanuvchiga nisbatan bildirilgan ayblovlarini tahlil qilgan holda o‘zining himoyasi ostidagi shaxsga huquqiy maslahatlar beradi. RoboLawyer faqatgina texnologik taraqqiyot mahsuliga emas, balki

bu jamiyatning rivojlanayotgan ehtiyojlariga javob sifatida maydonga chiqqan texnologiyadir. Hayotimiz raqamli dunyo bilan tobora chambarchas bog‘lanib borar ekan, qulay, samarali va ishonchli yuridik xizmatlarga talab ortaveradi. Xo‘sh, sun‘iy intellektning advokatura sohasida qo‘llanilishi ijobiy ta‘sirga egami yoki aksincha? Quyida sun‘iy intellekt advokatlari tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar haqida so‘z yuritamiz.

Birinchidan, sun‘iy intellekt advokatlaridan hamma birdek foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, mijozlar, huquqshunos va hatto huquqshunoslik yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalar uchun ham alohida afzallikka ega. Mijozlar uchun RoboLawyer qulay platformani taqdim etgan holda, u yerda yuridik xizmatlardan tez va arzon narxlarda foydalanishi mumkin. Bu kerak bo‘lganda yordam berishga tayyor shaxsiy advokatga o‘xshaydi.

Ikkinchidan, sun‘iy intellektidan foydalanish bilan yuristlar huquqiy strategiyalarni tadqiq

xizmat ko‘rsatish orqali transport vositalaridan foydalanish natijasida yuzaga keladigan zararli gazlarning atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish ham mumkin.

Sun‘iy intellekt huquqshunoslarning o‘rnini egallashi mumkinmi?

Sun‘iy intellekt asosida ishlaydigan robot advokatlarining insoniyatga va umuman, jamiyatga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tahdidlari xususida so‘z yuritadigan bo‘lsak, SpaceX asoschisi Elon Musk sun‘iy intellekt butun boshli insoniyat sivilizatsiyasini barbad qilishi mumkinligini inkor etmagan. Uning fikricha, sun‘iy intellekt insoniyat sivilizatsiyasi uchun asosiy xavf tug‘diruvchi omillardan biri bo‘lishi mumkin. Sababi, u insonga nisbatan barcha ishlarni samaraliroq va qisqa fursatda bajargani uchun bandlik bilan bog‘liq ommaviy muammolarni keltirib chiqarishi ehtimoli yuqori. Eng so‘nggi va ilg‘or texnologiyalarga talab ortishi natijasida kompaniyalar sun‘iy intellekt ortidan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarni anglamay qolishi mumkin.

AI advokat xizmatlaridan foydalanish orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlarning birinchisi sifatida ishsizlik ko‘rsatkichi oshib borishini qayd etish mumkin. Shu o‘rinda birsavol tug‘iladi: “Sun‘iy intellekt huquqshunoslarning o‘rnini egallashi mumkinmi?”. Ushbu savol bugungi kunda dolzarb muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Chindan ham, hozir sun‘iy intellekt ma‘lumotlarni tahlil qilish, hisoblash va avtomatlashtirishni o‘z ichiga olgan vazifalarni mukammal darajada bajarmoqda.

Masalan, RoboLawyer katta hajmdagi huquqiy ma‘lumotlarni saralashi, tegishli ma‘lumotlarni aniqlashi va oldindan belgilangan algoritmlar asosida yuridik maslahat berishi mumkin. Ya‘ni sun‘iy intellekt huquqiy tadqiqot o‘tkazish, shartnomalar tahlili va kutilayotgan ishlarni bashorat qilish kabi vazifalar uchun bebaho vositaga aylandi, desak adashmagan bo‘lamiz.

Biroq huquq amaliyoti ma‘lumotlarni tahlil qilish bilangina chegaralanib qolmaydi. Ushbu jarayonda insoniy qadriyatlar, axloqiy mulohazalarni chuqur tushunish, murakkab va noaniq vaziyatlarda mulohaza yuritish olish qobiliyati talab etiladi. Ushbu sanab o‘tilgan jihatlar esa sun‘iy intellektga yetarli darajada bo‘lmisligi mumkin.

Advokatlik kasbi yuqori darajadagi malakaviy qobiliyat, shaxsiy fazilatlar yordamida murakkab va keng qamrovli hodisalarni anglab yetgan holda mustaqil qaror qabul qilishni talab etadi. AI huquqshunoslar esa ushbu fazilatlarining barchasiga ega emas. RoboLawyer kabi AI yuristlar paydo bo‘lishi tahdid emas, balki yuridik xizmatlarning yangi davri uchun katalizatoridir. Sun‘iy intellektning huquqiy landshaftga integratsiyalashuvi inson advokatlarini almashtirish haqida emas, balki yanada mustahkam, o‘zaro bog‘langan va aqli huquqiy ekotizimni yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Shu sababli, u advokatlarining ishini yengillashtirish uchun xizmat qilsa-da, normativ tusdagi huquqiy hujjatlarini ishlab chiqish, mijozlarga maslahat berish, sud jarayonlarida ishtirok etish, huquqiy tadqiqot o‘tkazish bilan bog‘liq ishlarda inson omilining o‘rnini bosa olmaydi degan xulosaga kelish mumkin.

Qolaversa, sun‘iy intellekt bazasiga kiritilgan shaxsga doir ma‘lumotlar xavfsizligini ta‘minlash masalasi muammo bo‘lishi ehtimoli

bor. Ma‘lumotlar maxfiyligi yuridik firmalar uchun biznes yuritishning muhim tarkibiy elementlaridan biridir. Sun‘iy intellekt qabul qilgan qarorlar, yuridik maslahat va hisob-kitoblardagi xato va kamchiliklarga kim javobgarligi masalasi ochiq qoladi.

Sudya, prokuror va advokatlar qaysidir ma‘noda o‘z ish faoliyati davomida ichki ishonchi, hayotiy tajriba va qadriyatlariga tayangan holda qaror qabul qiladi. Sun‘iy intellektga asoslangan tizim esa hissiyotlarni tushunmaydi. Ya‘ni advokatlar huquqiy yechim taqdim etayotganda yoki sudyalalar qaror qabul qilayotganda faqat qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan talablar doirasida ish mazmunini hal qilib qo‘ymasdan, tarafdari ehitish va ularning holatini aniq idrok etgan holda adolatli qaror qabul qilishi lozim.

Sun‘iy intellekt huquqshunoslarining imkoniyat va xavf chegaralarini tahlil qilish orqali aytish mumkin, undan samarali va oqilona foydalanish orqali misli ko‘rilmagan natijalarga erishish mumkin. U tufayli yuzaga keladigan muammo va xavf-xatarlar esa insonlarning foydalanish darajasi bilan bevosita bog‘liq.

Aslini olganda, RoboLawyer kabi AI advokatlarni inson advokatlar o‘rnini egallashga emas, balki ularga imkoniyat berish uchun yordamchi ta‘minot manbai deb qabul qilish maqsadga muvofiq. Ular yuridik mutaxassislar imkoniyatlarini oshiradigan, yuridik hamjamiyatni rivojlantiradigan va xizmatlarni yanada qulay va shaffof qiladigan vositalardir. Ushbu texnologiyani o‘zlashtirib, yanada samarali va istiqbolli yuridik xizmatlarning yangi davrini boshlash mumkin.

RoboLawyer kabi AI advokatlar paydo bo‘lishi tahdid emas, balki imkoniyatdir. Bu



huquqshunoslar uchun o‘rnatish, o‘zgarishlar qilish fursatidir. Ushbu innovatsion o‘zgarishlarga moslashish orqali ular sun‘iy intellektni ijobiy o‘zgarishlar katalizatoriga aylantirishi mumkin.

Raqamli notariat. Keyingi qadam qanday bo‘ladi?

Yana bir amaliyot — raqamli notariat. Bugun sohada zamonaviy texnologiyalarni yanada kengroq qo‘llash va muammolarni tahlil qilish, xorijning ilg‘or tajribasini o‘rganish dolzarb vazifalar sirasidan.

Mamlakatimizda notarial xizmatlar ko‘rsatishda kiberxavfsizlik va ma‘lumotlarni himoya qilish, raqamli dunyoda notariusning ijtimoiy mas‘uliyati, notariat sohasida elektron hujjatlar almashinuvi va raqamli texnologiyalarni qo‘llash, masofadan notarial xizmatlar ko‘rsatish hamda notariatning inson huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, onlayn notarial harakatlar amalga oshiriluvchi “E-notarius.uz” axborot tizimi joriy etildi. Notarial harakat rasmiylashtirish uchun fuqarolardan talab qilinadigan hujjatlar idoralararo elektron hamkorlik orqali notarius tomonidan mustaqil ravishda olinishi yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, xususiy notarial faoliyatni litsenziyalash to‘liq elektron shaklga o‘tkazilgan. Meros ishlarida merosxo‘rlar doirasini aniqlab beruvchi “Shajara” dasturi yaratildi.

Eng muhimi, notarial harakatlar uchun to‘lovlarini avtomatik hisoblash tizimi hamda notarial harakatlarning qonuniyligini ta‘minlash maqsadida taraflarning barmoq izlarini skaner qilish tizimi joriy etildi.

Raqamli davlat boshqaruvi va davlat xizmatlari transformatsiyasi

Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi muloqot soddalashti. Natijada vaqt va resurslar tejalmog‘da. Eng avvalo, fuqarolarga kundalik hayotda zarur bo‘lgan xizmatlarni elektron tarzda olish imkoniyati, shu jumladan, mobil ilovalar va yagona interaktiv portallar orqali xizmatlar taqdim etilmog‘da.

Sun‘iy intellektning davlat boshqaruvi va xizmatlariga joriy etilishi murojaatlarni saralash, shaxsiy ehtiyojlarga ko‘ra tavsiyalar berish, xatolarni kamaytirish, fuqarolar bilan avtomatlashtirilgan muloqotni yo‘lga qo‘yish imkoniyatini berdi. Sun‘iy intellekt asosida xizmat ko‘rsatish nafaqat tezkorlik, balki xato ehtimolini kamaytirish va inson resurslarini samarali yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Proaktiv davlat xizmatlari, ya‘ni fuqaro murojaat qilmasidan avval uning ehtiyojiga mos xizmatni avtomatik ravishda taklif qilish konsepsiyasi taqdim etildi. Mazkur yondashuvning samarali namunalari sifatida bola tug‘ilganida avtomatik ravishda tug‘ilganlik haqida guvohnoma, nafaqa va boshqa xizmatlar paketi shakllantirilayotganini aytish mumkin.

Shuningdek, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlik va inson huquqlarini ta‘minlash masalalariga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Davlat fuqarolar haqida to‘playotgan ma‘lumotlarning maxfiyligi va ulardan faqat belgilangan maqsadga foydalanilishi, sun‘iy intellekt qarorlarining shaffofligini ta‘minlayapti.

Bu borada raqamli identifikatsiya va biometrik autentifikatsiya ham bugungi kunda davlat xizmatlarining asosiy elementiga aylandi. Xususan, QR-kodlar, mobil ID va biometrik yechimlarning qonuniy asoslari, xalqaro standartlarga muvofiq va ular orqali xizmat olish jarayonidagi qulayliklar shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, internet va raqamli xizmatlarga kirish imkoniyati cheklangan aholi qatlamlari uchun qator qulayliklar yaratildi. Bu jarayonda raqamli inkluziviyani ta‘minlash, ya‘ni barcha fuqarolar, jumladan, yoshlar, keksa avlod va chekka hududlarda yashayotganlarni ham raqamli muhitga to‘liq jalb qilish borasida qator chora-tadbirlar belgilandi.

Sun‘iy intellekt faqat avtomatlashtirish vositasi emas, balki davlat xizmatlarini shaxsiylashtirish, prognoz qilish va inson ehtiyojlariga moslashtirishning kuchli vositasi. Shu bilan birga, u inson huquqlari, axloqiy me‘yorlar va yuridik mas‘uliyat nuqtayi nazaridan muvozanat zaruriyati hisoblanadi.

Bu boradagi ishlar mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilmoqda va zarur huquqiy poydevor yaratildi. Xususan, Prezidentning “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi va qator huquqiy-me‘yoriy hujjatlar imzolandi. Strategiyada sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish bo‘yicha erishish lozim bo‘lgan maqsadli ko‘rsatkichlar belgilab berildi.

Bir so‘z bilan aytganda, sohalarni raqamlashtirish, fuqarolar uchun sodd, tezkor va inkluziv yechimlarni joriy etish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Kechasi bilan ko‘zimga uyqu kelmadi. Xayollar girdobida soat allamahall bo‘lganini ham sezmadman. Noiloj, bir oz toza havodan nafas olib kelay deya tashqariga yo‘l oldim. Toshkentning Mirzo Ulug‘bek tumanida ijarada turaman. Qisqa vaqt ichida bu yerlar men uchun xuddi o‘zim tug‘ilib o‘sgan Kegeyli tumani kabi qadrdon bo‘lib ulgurman. Tungi sayr asnosida ijara uyim yaqinidagi milliy taomlar kafesi oldida bir zum to‘xtab qoldim. Soat allaqachon yarim tundan oshgan bo‘lsa-da, kafe ichi odamlar bilan gavjum edi. Ushbu maskan kechayu kunduz ishlaydi va uning xo‘randalari hech kamaymaydi. Bu manzaraga termilib turib, o‘yga toldim: xalqimiz baribir o‘zligimizga xos, asriy an‘analardan bilan sayqal topgan milliy taomlarni sog‘inadi, ularni sevib iste‘mol qiladi. Sog‘inch esa qon-qonimizga singib ketgan madaniy xotiraning bir ko‘rinishidir.

Men bugungi kunda yoshlarimizning “Sog‘lom ma‘naviy ehtiyoj taomnomasida” asosan, xorij san‘atiga taqlid asosida tayyorlangan, yengil-yelpi “madaniy taomlar” ustunlik qilayotganidan tashvishdaman. Bu jarayon shunchaki did o‘zgarishi emas, balki millatning ma‘naviy immuniteti zaiflashib

o‘zligimiz, milliy san‘atimizning chinakam qadrllovchisi qilib tarbiyalash yo‘llarini izlab, tinimsiz bosh qotirmoqda. Ammo, menimcha, bu juda murakkab va osonlikcha uddalanadigan

“

Ijtimoiy tarmoqlar va internet saytlari orqali “ma‘naviy ehtiyoj”larini bemaol qondirmoqda. Bu raqamli dunyoning algoritmlari esa chuqur mushohada, badiiy yuksaklikdan ko‘ra, ko‘proq shov-shuvga, yorqinlikka, tezkor reaksiyaga (layk va repostga) asoslanadi. Natijada san‘atkorlar ham ijodiy izlanishdan, murakkab asarlar yaratishdan ko‘ra, ana shu algoritmlarga mos keladigan, tez ommalashadigan mahsulot ishlab chiqarishga o‘tib olmoqda.



borayotganidan dalolatidir. O‘zim faoliyat yuritadigan, mamlakatimizning yetakchi san‘at oliygohlaridan birida bu masala tez-tez muhokamalar markazida bo‘ladi. Ustozlarimiz, sohaning zabardast olimlari yoshlarni asl

vazifa emas. Negaki, san‘at daraxtini biz — yoshlar qanday silkitayotgan bo‘lsak, u ham harakatlarimizga yarasha “meva” bermoqda. Ya‘ni san‘atga qanday munosabatda bo‘lsak, undan shunday aks sado olmoqdami.



Soha olimlarining bosh g‘oyasi yoshlarga san‘atni shunchaki vaqtichog‘lik emas, balki tarbiya vositasi sifatida tavsiya etish, uning ortiga yashiringan mazmun va undan hosil bo‘ladigan his-hayajonni to‘g‘ri anglashni o‘rgatishdir. Biroq bugungi kunda milliy san‘atning g‘arblashuvi biz kutgandan-da tezroq sodir bo‘lmoqda. Albatta, hech bir san‘at asari abadiy va o‘zgarmas bo‘la olmaydi, ammo milliy san‘atimizning negizlarini, o‘zagini asrab qolish hayotiy zaruratga aylangan. Sababi, bugungi yoshlar milliy estrada san‘atimizning g‘ala-g‘ovur, janr jihatdan pala-partish, mazmunan sayoz bir davrida tinglovchi sifatida shakllanib qoldi. Bunda endi televideniye yoki radioni ayblash deyarli befoyda. Chunki yoshlar allaqachon bu an‘anaviy axborot vositalaridan uzoqlashib, o‘z virtual olamini yaratib ulgurman.

Ular ijtimoiy tarmoqlar va internet saytlari orqali “ma‘naviy ehtiyoj”larini bemaol qondirmoqda. Bu raqamli dunyoning algoritmlari esa chuqur mushohada, badiiy yuksaklikdan ko‘ra, ko‘proq shov-shuvga, yorqinlikka, tezkor reaksiyaga (layk va repostga) asoslanadi. Natijada san‘atkorlar ham ijodiy izlanishdan, murakkab asarlar yaratishdan ko‘ra, ana shu algoritmlarga mos keladigan, tez ommalashadigan mahsulot ishlab chiqarishga o‘tib olmoqda. Afsuski, ko‘plab san‘at vakillarimizning ijodiy parvozi “to‘ydan pul topish” tashvishi atrofida cheklanib qolayotgani ham sir emas. Qaysi xalqning san‘atkorlari o‘z ijodini bozor talablariga, to‘yxonalarning sayoz didiga moslasa, o‘sha xalqning san‘ati ruhsiz va bezoval bo‘lib qolishi muqarrar.

Bunday uxluksiz salbiy o‘zgarishlar jamiyatda ishonchsizlik, ikkilanish va hatto

“Milliy san‘at endi rivojlanmaydi”, degan tushkunlik kayfiyatini yuzaga keltirmoqda. Bu holat menga rus faylasuf-shoiri Fyodor Tyutchevning XIX asrdayoq aytgan so‘zlarini yodga soladi: “Bugungi kunda buzuqlikka uchragan narsa tana emas, balki ruhdir”. Haqiqatan, bugungi yengil-yelpi, mazmunsiz, yot madaniyatga taqlidan yaratilgan qo‘shiqlar yoshlarning tanasiga emas, bevosita ruhiyatiga, ongiga zarba bermoqda. Estrada — ommaviy va ruhga eng tez ta‘sir qiluvchi san‘at. Uning saviyasi va sajjiasining tushishi milliy o‘zlikka putur yetkazishi, yoshlarning ma‘naviy immunitetini keskin zaiflashtirishi aniq.

Ilmiy-amaliy anjumanlarda ustozlarimiz bilan bu mavzularda ko‘p suhbatlashamiz. Yaqinda bo‘lib o‘tgan shunday tadbirlarning birida O‘zbekiston xalq hozifi, professor Orol Safarov domlaning aytgan tanqidiy fikrlari amaliyotda qo‘llashga loyiq ilmiy xulosa bo‘ldi. Ustoz bunday dedi: “Afsuski, o‘zimizning boy va mazmunli milliy musiqamiz televideniye va radio orqali xalq eshitadigan, dam oladigan paytlarda targ‘ib qilinmayapti. Aksincha, yoshlar eshitadigan kunduzgi vaqlarda zamonaviy hamda xorijiy musiqalarning tinimsiz efriga uzatilishi natijasida yoshlar g‘arbona qadriyatlarga ergashishga moyil bo‘lib qolmoqda”. Demak, sifatli milliy musiqaga ham to‘g‘ri vaqtda, to‘g‘ri usulda targ‘ib qilinsa, unga bo‘lgan talabni shakllantirish mumkin. Agar yoshlar o‘z milliy musiqalarini tinglamasa, ular asta-sekin o‘z ildizlaridan — madaniy va ma‘naviy asoslaridan uzoqlashib boradi. Bu esa kelajakda milliy musiqaga ijrochilari, bastakorlari va hatto biz kabi tadqiqotchilarning ham yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin.

Haqiqiy san‘at asari shaxsni ma‘naviy barkamollikka yetaklashi kerak. U insonparvarlik va odamiylik ruhida, shaxsning ijodkorlik qobiliyati orqali rivojlanadi. Lekin tan olish kerakki, tinglovchilar ham milliy estrada san‘atining shakllanishi va rivojiga bevosita sababchidir. San‘atkor o‘z asarini yaratadi, biroq u tinglovchisiz yashay olmaydi. Eng mashhur ijodkor ham tinglovchilarning reaksiyasini, talabini hisobga oladi va o‘z yo‘nalishini shunga qaray belgilaydi. Bir necha



o‘n betlik ilmiy ma‘ruzani ko‘pchilik birday qabul qilmasligi, uning mag‘zini chaqmasligi mumkin. Lekin bor-yo‘g‘i 1-2-3 daqiqali qo‘shiq orqali ko‘pchilikni bir zumda tinglovchiga aylantirish mumkin. Chunki kuy va ijro orqali yetkazilgan g‘oya aqlga emas, to‘g‘ridan to‘g‘ri hissiyotga ta‘sir etgani uchun tez va samarali qabul qilinadi.

Bugungi kunda san‘at sohasida tinglovchi madaniyati darajasining pasayishi nafaqat yoshlar orasida, balki jamiyatning barcha qatlamlarida yaqqol sezilmoqda. Eng achinarlisi, jamiyat bu holatga, ruhiy tanazzulga, axloqqa zid hodisalarga asta-sekin ko‘nikib bormoqda. Olimlarning bu holat oxir-oqibat ma‘naviy qashshoqlikka olib kelishi mumkinligi haqidagi bonglariga esa deyarli jiddiy e‘tibor bermayapmiz. Agar jamiyat ma‘naviy qashshoqlikka rozi bo‘lib, unga ko‘nika boshlasa, hech qanday tashqi rivojlanish, iqtisodiy yuksalish uni bu inqirozdan qutqara olmaydi.

Xulosa qilib aytganda, biz muammoning yechimini faqat san‘atkorlardan yoki davlat tashkilotlaridan izlamasligimiz kerak. Sog‘lom ma‘naviy ehtiyojni jamiyatning o‘zi shakllantirmas va talab qilmas ekan, milliy estradada yuksak badiiy darajadagi asarlar yaratilishi arimahal. San‘atkor — ijod mahsulini yaratuvchi, xalq esa baholovchi va yo‘nalishni belgilovchi bosh kuchdir. Biz, tinglovchilar, milliy san‘atimizda haqiqiy, badiiy durdonalarning yaratilishiga sababchi bo‘lishimiz kerak. San‘atkorlarning ma‘nan yuksak qo‘shiqlar yaratishi uchun, ayniqsa, biz — yoshlar chuqurroq mazmunli asarlarni talab qilishimiz kerak. Yaxshi qo‘shiqlar ko‘payishi uchun ularni tinglashimiz, targ‘ib qilishimiz, sifatsizlarga esa munosabatimizni bildirib, ularni inkor eta olishimiz shart. Zero, san‘atkor xalq qalbin aks ettiruvchi ko‘zgudir. Qalbdagi ehtiyoj qanday bo‘lsa, san‘at ham shunga moslashib, shuni aks ettiraveradi. Bizning vazifamiz ana shu qalb ehtiyojini yuksaltirishdan iborat.

Asilbek QOLQANOTOV,
O‘zDSMI tayanch doktoranti

Bir o‘lkaki...

Navoiy viloyati tashkil etilganiga bir asr to‘lmagan bo‘lsa-da, hududning o‘tmishi qadim, tarixiy voqealarga boy. Qizilqum sahrosining yer osti boyliklari behisob. Mendeleyev davriy jadvalidagi barcha elementni mujassamlashtirgan. Ushbu hudud oltin, kumush, uran va boshqa nodir foydali qazilmalari bilan nom qozongan. Bu yerning tog‘larida marmar, granit, bazalt, ohaktosh va boshqa ko‘plab noyob toshlar mavjud.

Karmana tumanining janubidagi Qizbibi tog‘ yonbag‘irlarida juda mustahkam kunjuttoshlar ham bor. Bu kabi toshlar ko‘proq Sangbur darasida uchraydi. Aynan ushbu kunjuttoshlardan qadimda tegirmon toshi yasalgan. Bugun Sangbursoyning har ikki tomonida ham tegirmon toshi kovlab olingan maydonlarni ko‘rish mumkin.

Navbahor tumani Sarmishsoy darasidagi qadimiy petrogliflarni tomosha qilish qanchalik zavqli bo‘lsa, Sangbursoyini ham bir bor borib ko‘rish kishiga ajib taassurot beradi. Sababi, mazkur hudud bir necha asr ilgari yuz bergan voqea-hodisalardan so‘zlaydi. “Sangbur” qadimiy so‘z bo‘lib, “sang” — tosh, “bur” — singdirish, ajratish, degan ma‘nolarni bildiradi. Tosh-tashlarning qadimiy ish uslubi va hatto ular ishlatadigan uskunalari namunasi hozirgacha saqlanib qolgan.

— Bu yerda qadimda tegirmon toshlari yasaladigan ustaxonalar bo‘lgan, — deydi tosh-tashlar sulolasi vakili G‘affor Xoliqov. — Ushbu maskanda ming yillar avval kunjuttoshlar aniqlangan. Juda mustahkam bo‘lgani uchun ham ulardan

TARIXIY QADAMJOLAR

SAYYOHLIK RIVOJIGA HISSA QO‘SHISHI MUMKIN. QACHONKI...

Ayni vaqtda Sangbur qo‘rg‘onida ushbu tarixiy manzaralarning barcha izi saqlanib qolgan. Bu yerda kunjuttosh va undan yasalgan tegirmon toshi namunalarini ko‘rish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tarixiy maskandan Navoiy viloyatining yana bir muhim sayyohlik inshooti sifatida foydalanish imkonlari bor. Tarixi bir necha asrga borib taqaluvchi, qadimiy sangburlar hayotidan hikoya qiluvchi hudud obodonlashtirilib, sayyohlar uchun zarur qulaylik yaratilsa, viloyatning sayyohlik salohiyati oshishiga xizmat qiladi.

— Ushbu qadimiy maskan mahalliy aholi va hunarmandlar uchun daromad manbai bo‘lgan, — deydi tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Zokir Tog‘ayev. — Bu yerdan turli hududlarga tegirmon toshlari olib ketilgan. Bir tegirmon toshini yasashga 1-2 oy vaqt ketgan. Tayyor bo‘lgan toshlar juda og‘irlikli sabab bu yerdan olib chiqish va joyiga o‘rnatish uchun katta kuch kerak bo‘lgan. Shundan sangburchilar, ya‘ni tosh kesuvchi ajdodlarimiz jismoniy jihatdan ham kuchli bo‘lganini anglash mumkin. Biz bu kabi tarixiy joylarni to‘liq o‘rganishimiz, boricha asrab-avaylashimiz, yosh avlodga o‘rgatishimiz zarur.

Karmana tumanida yana bir qadimiy mavjud. Buxoroning so‘nggi amiri Sayid Olimxonning otasi Sayid Abdulahadxon Karmana atrofida Charmgarchorbo‘g‘, Gulchorbo‘g‘, Bog‘i olchin, Jarchorbo‘g‘ kabi bir nechta chorbo‘g‘ barpo ettirgan. Shulardan bugungacha faqat bittasi saqlanib qolgan. Bu Karmana tumanining Qo‘hnaqo‘rg‘on mahallasida, Zarafshon daryosiga yaqin hududda joylashgan Mirzachorbo‘g‘dir.

Ushbu obida Sayid Abdulahadxonning yozgi qarorgohi bo‘lgan. 1900-1905-yillarda barpo etilgan, betakror me‘moriy uslubga ega ushbu saroy nafaqat tarixiylik, balki naqqoshlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi san‘atining o‘sha davrga xos namunalari aks etgani bilan ham qimmatlidir.

Karmanada bunday saroy borligini nafaqat sayyohlar, balki viloyatning ko‘p aholisi ham bilmaydi. Achinarlisi, mahalliy aholi tilla izlash maqsadida qarovsiz qarorgohning devor va ganchkor naqshlarini buzib tashlagan. Natijada saroyning old kirish qismi butunlay qulab tushgan edi. Shundan so‘ng ijtimoiy tarmoqlarda 1900-1905-yillarda barpo etilgan mazkur qarorgoh to‘lirtalab ahvoldaligi haqida shov-shuvli xabarlar tarqaldi va tarixiy obida 2020-yilda madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish manzilli dasturiga kiritildi. 2023-yilda Karmana tumanida yashovchi ziyoli qatlam va keng jamoatchilik tashabbusi bilan qarorgohda ta‘mirlash-tiklash ishlari boshlangan edi.

— Navoiy viloyati nafaqat sanoat hududi, balki osori atiqalarga boy zamindir, — deydi Navoiy viloyati “Me‘hmuro” turizm markazi rahbari Jonibek Shuhratov. — Tarix buzib ko‘rsatilishi va bu qarorgoh to‘g‘risidagi bo‘lmag‘ur taxminlar tufayli ushbu qadimiy bino yillar davomida e‘tiborsiz qoldi. Tarixchilar, ziyolilar va faollar ushbu hududni tiklash bo‘yicha ko‘p targ‘ibotlar o‘tkazdi. Natijada viloyat mutasaddilari va jamoatchilik nazorati bilan so‘nggi ikki yilda inshootning tom qismini yopish va buzilib ketgan ayvoni, ya‘ni qarorgoh qabulxonasini qayta tiklashga erishildi. Atrofi panjara bilan ihotalandi. Bu yerda o‘ymakorlik, ganchkorlik kabi noyob hunarmandchilik namunalarining san‘at darajasidagi uyg‘unligi mujassam.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, ushbu tashlandiq saroydan qishloq xo‘jaligida pillachilik idorasi sifatida foydalanilgan. Karmanalik nuroniyarning ta‘kidlashicha, qarorgoh qurilgan joyning tabiati o‘ziga xos. Hududdagi to‘llar qarorgohga keluvchilar uchun soyabon vazifasini bajargan. Hozir ham bu yerda uzoq tarixga guvoh daraxtlar bor.

— Ushbu yodgorlik Vazirlar Mahkamasining qarori bilan davlat muhofazasiga olingan, — deydi Navoiy viloyati madaniy meros boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Bobur Yo‘ldoshev. — Hozir ushbu inshoot Madaniy meros agentligining restavratsiya qilinadigan obyektlar ro‘yxatiga kiritilib, ikki yildan buyon muayyan ishlar qilinmoqda. Buning uchun 2 milliard 300 million so‘m mablag‘ ajratilgan.

Yodgorlik murakkab va mukammal arxitekturaviy kompozitsiyaga ega. Devori besh qavatdan iborat. Shu bilan birga, bino ichi yozda salqin, qishda issiq bo‘lishi uchun vakuum, ya‘ni hozirgi issiqxonalarda qo‘llanayotgan termos usulidan foydalanilgan. Uzoq yillar qarovsiz qolgan tarixiy maskanni ta‘mirlash va tiklash uchun vaqt hamda mablag‘ talab etiladi. Yillar davomida e‘tiborsiz qolgan qarorgoh asliga xos va mos ravishda to‘liq ta‘mirlansa, Navoiy viloyatining turizm salohiyati oshishiga xizmat qiladi. Sababi, Mirzachorbo‘g‘ qarorgohi Samarqand va Buxoro viloyatlarini bog‘lab turuvchi M-37 magistrali yaqinida joylashgan. Qolaversa, bu qarorgoh ajdodlarimiz ilmu salohiyatini yanada yorqin ifoda etuvchi bebaho madaniy merosdir.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-646. 36191 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi. Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05 O‘za yakuni — 21:05 Topshirildi — 01:20